Baxshichilik san’ati va bugungi kun

Jo’rabekova Oydin Do’stovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o’qituvchisi

Choriyeva Go’zal G’ayratjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti o’zbek tili va adabiyoti

yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada baxshichilik san’atining xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni, uning YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilishi hamda yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida baxshilar ijodi, dostonlarda mujassam bo‘lgan ma’naviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, milliy merosni asrab-avaylash va uni yoshlar ongiga singdirish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘llari ilmiy asosda izohlandi.

Kalit so‘zlar: Baxshichilik san’ati, YUNESKO, nomoddiy madaniy meros, doston, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma’naviyat

Annotation: The article highlights the role of the art of baxshichilik in oral folk literature, its recognition by UNESCO as an Intangible Cultural Heritage of Humanity, and its importance in the upbringing of the younger generation. During the research, the creativity of baxshis, the spiritual values embodied in epics, and their educational impact were analyzed. In addition, ways of preserving national heritage and instilling it in the minds of young people to raise a well-rounded generation were explained on a scientific basis**.**

Keywords: Art of baxshichilik, UNESCO, intangible cultural heritage, epic, youth education, national values, spirituality.

Baxshichilik san’ati — xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va yuksak namunalaridan biri bo‘lib, unda xalqning tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari va orzu-umidlari mujassamdir. Baxshi ijodi xalq hayotida nafaqat san’at, balki ma’naviy xotira va milliy g‘urur ramzi sifatida ham e’tirof etiladi.Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlod ongiga milliy ruh va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish masalasi nihoyatda dolzarbdir. Shu nuqtai nazardan baxshichilik san’atining 2019-yilda YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani uning xalqaro miqyosdagi e’tirofi va tarbiyaviy ahamiyatini yanada mustahkamladi.Boshqa sohalardan farqli o’laroq bu sa’natning adabiyotimiz rivojida ahamiyati beqiyosdir.[1]

Baxshichilik san’atining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish, uning ma’naviy-ma’rifiy imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir.Bu maktab asrlar davomida o’z

tarbiyalanuvchilarini milliy g'oyalarga sodiq holda tarbiya qildi .Bu borada ayniqsa Xorazm dostonchilik maktabini o'rni beqiyos.Xorazm dostonchilik maktabi asosan uch manzilda tashkil topgan bo'lib, ushbu markazlarni do'kon deb atashgan.[1]

Xorazm dostonchilik do'konlari (Markaz) 3 qismdan iborat:
1-Markaz Xozarasp vakillari Xo'jayoz baxshi, Amin baxshi, Murod baxshi, Eshniyoz baxshi. Markaz Xozarasp (yuqori do'kon) Turkmaniston Libab viloyati, Darg'on ota, Pinak dostonchilik maktablarini o'z ichiga oladi.

2-Markaz Xiva (do'kon) Eshboy baxshi, Matniyoz baxshi (G'aribniyoz) Nurmamat baxshi (cho'liq) Avaz bola, Nurillo chig'atoy, Ernafas baxshi, Matoqib qori Hasan baxshi, Sayid baxshi, Bekjon baxshi, Usmon baxshi (Bola baxshining bobosi) Buva baxshi, Jumanazar baxshi, Abduraim baxshi, Bola baxshi va uning bolalari. Markazi Xiva (o'rta do'kon) Xiva, Xonqa, Yangiariq, Urganch, Qo'shko'pir, Shovot dostonchilik maktablarini o'z ichiga oladi.

3-Markaz Mang'it shahri (Oshoq do'kon) vakillari Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyav baxshi, Otajon baxshilar va Gurlan, Toshovuz, Xo'jayli, Ko'hna Urganch dostonchilik maktablarini o'z ichiga oladi.
Xorazmning XIX asrdagi faol baxshichilik maktabi Toshhovuz bo'lib, o'z atrofida ko'plab o'zbek qoraqalpoq turkman baxshilarini jipslashtirgan va unga iste'dodli turkman, baxshisi Suyav boshchilik qilgan. Suyav baxshi o'zbek G'aribniyoz baxshining shogirdi bo'lgan. Bu davrda Eshboy, Otash, Nurjon, Niyozmat, Abdurahim, Muso, Otaniyoz, Otajon, Rizo, Erniyoz, Jumaniyoz baxshilar shuhrat qozonishgan. Vohada Jumanazar va Xo'jayoz baxshilardan keyin shajarani Bola baxshi (Abdunazar Abdullayev) davom ettirgan. Uning bilan birga Xudaybergan, Matnazar, Hayitboy, Jumaboy, Qodir, Abdi, Ahmad, Mahmud baxshilar faoliyat ko'rsatishgan. Hozirda esa Tursun baxshi, Yo'ldosh baxshi, Qalandar baxshi va Bola baxshining farzandlari Matoqub, Norbek Yetmishboylar Xorazm baxshichilik an'analarini davom ettirib kelmoqda.
Xorazm baxshilari kuylaydigan dostonlar "Oshiq" va "Go'ro'g'li, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Mahmud", "Oshiq Oydin", "Oshiq Alvand", "Sayodxon va Hamro", "Hurliqo va Hamro", "Tohir va Zuhra", "Qumri", "Shahriyor", "Layli va Majnun", "Yusuf bilan Ahmad", "Durapsho", "To'limbiy", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Bozirgon", "Arab Rayxon", "Avazxon", "Xirmon Dalli", "Gulruhpari" kabilardan iborat.
Ushbu dostonlar baxshilar va dostonchi ansamblli xalfalar repertuari orqali og'zaki tarzda hamda yakka xalfalar va qissaxonlar repertuari orqali kitobiy matn o'qib yoki yodaki aytilgan tarzida xalq orasida targ'ib qilib kelinmoqda.
"Xorazm dostonlarini baxshi garmon yoxud rubob yoki tor jo'rligida kuylaydi. Uning yonida albatta bo'lamonchi yoki g'ijjakchi va doirachi bo'lishi lozim. Xorazm dostonchiligida har bir dostonni kuylash vaqti ikki-ikki yarim soatdan to'rt-besh soatgacha davom etish mumkun". [2]

---

[1] Baxshichilik va dostonchilik an'analari. – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.

[2] Alpomish dostoni (xalq og'zaki ijodi namunasi).

O‘zbekistondagi xalfachilik san’ati Xorazmda mavjud bo‘lib, uni savodxon, gapga chechan, ayni vaqtda xonandalik qobilyatiga ega bo‘lgan ayollar ijro qilgan. Diniy va dunyoviy kitoblar, shu turdagi kitoblardan parchalar va dostonlarni o‘qib, kuylab kelgan ayollarni xalfa deyishgan. Bugungi kunda xalfachili[3]k san’ati o‘z maktabiga ega bo‘lib, ko‘pgina yosh qizlar ushbu san’at bilan shug‘ullanib, samarali ijod qilib kelishmoqda.

Baxshichilik san’ati asrlar davomida xalqning turmush tarzi va urf-odatlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Baxshilar doston ijrochilari sifatida xalqning tarixiy xotirasi va orzu-intilishlarini avloddan-avlodga yetkazib kelganlar. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshan” kabi dostonlar xalq qahramonligi, adolat va erkinlik g‘oyalarini ifodalaydi.Baxshilar maktabi ustoz-shogird an’anasi asosida rivojlangan. Har bir baxshi dostonchi, sozanda, xonanda va xalq dardini kuylovchi shoir sifatida qadrlangan. Shu bois baxshichilik xalqning eng muhim madaniy meroslaridan biri sifatida e’zozlanadi. 2019-yilda O‘zbekiston baxshichilik san’ati YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. Bu qaror milliy madaniyatimizga berilgan yuksak baho bo‘lib, baxshichilikni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish mas’uliyatini yanada oshirdi. YUNESKO e’tirofi baxshichilikning xalqaro miqyosdagi o‘rni va insoniyat madaniy merosidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Dostonlarda mujassam bo‘lgan g‘oyalar yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Baxshi ijodida vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, do‘stlik, adolat va mardlik kabi qadriyatlar targ‘ib etiladi. Shu orqali yoshlarning milliy ongini mustahkamlash, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.Bugungi kunda baxshichilik maktab va oliy ta’lim tizimida o‘qitilmoqda, baxshilar ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bu esa yoshlarning milliy merosga qiziqishini oshiradi va ularni ma’naviy jihatdan boyitadi.[4]

O‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, baxshichilik san’atini zamonaviy shakllarda targ‘ib etish yoshlarning qiziqishini kuchaytiradi. Multimedia vositalaridan foydalanish, baxshilar ishtirokidagi onlayn loyihalar, teatr sahnalari va dostonlarning elektron nashrlari bu san’atni bugungi davr madaniy hayotida yanada dolzarb qiladi.

Xulosa qilib aytganda, baxshichilik san’ati xalqimizning bebaho ma’naviy merosi bo‘lib, uning YUNESKO tomonidan e’tirof etilishi xalqimiz madaniyatiga berilgan ulkan bahodir. Baxshilar ijodi yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga sadoqat va ma’naviy barkamollikni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari. – Toshkent: .“O‘qituvchi” nashriyoti.

2.Baxshichilik va dostonchilik an’analari. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.

3.Alpomish dostoni (xalq og‘zaki ijodi namunasi).

4.O[4]‘zbek folklorshunosligi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent.

[4] O‘zbek folklorshunosligi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent.